

“TARIXI ANBIYO VA HUKAMO” ASARIDA ULUL-AZM PAYG‘AMBARLAR TA’RIFI

Rajabova M.B.

BuxDU professori, f.f.d.

Hakimova S.A.

BuxDU Matnshunoslik va adabiy
manbashunoslik yo‘nalishi, 2- bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Maqolada “Tarixi anbiyo va hukamo” asari haqida fikr yuritiladi. Asardagi ulul-azm deb ta’riflangan payg‘ambarlar bilan bog‘liq hikoyatlar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, “Tarixi anbiyo va hukamo”, payg‘ambar, Nuh, Ibrohim, Muso, Iso, Muhammad alayhissalom.

ABSTRACT

The article discusses the history of anbiyo and the work of hukamo. The stories related to the prophets described as ulul-azm in the work are analyzed

Key words: Alisher Nevai, “Tarixi anbiyo va hukamo”, prophets, Nuh, Ibrohim, Muso, Iso, Muhammad alayhissalom.

“Tarixi anbiyo va hukamo” asari Sharq tarixnavisligi an’analari usulida yaratilgan. Asarda tarixiy ma’lumotlar bilan birga xalq og‘zaki ijodida va diniy manbalarda rivoyat qilingan hikoyalar berilgan. Asar Odam va Havoning yaratilishini hikoya qilishdan boshlanib, Odam avlodlari va ular orasidan chiqqan payg‘ambarlar tarixini bayon qilish yo‘li bilan davom etadi. Buyuk ijodkor payg‘ambarlar hayotiga doir naqlarni bayon etar ekan, har bir hikoyatni lirik janrda berilgan xotima bilan yakunlaydi.

“Tarixi anbiyo va hukamo” asarda beshta payg‘ambarga “ulul azm” – sifati berilganligini ta’kidlaydi. Bular: Nuh (a.s), Ibrohim (a.s), Muso (a.s),.Iyso (a.s), Nabiylar xotami - Muhammad alayhissalom.

Navoiy asarlari lug‘atida “ulul azm” birikmasiga “sabot, matonat va g‘ayrat egalari” deb izoh beriladi. Demak, asarda yuqorida nomlari keltirilgan payg‘ambarlar qavmlaridan ko‘p ozor ko‘rganliklari, buni sabr va bardosh bilan yenganliklari sababli ushbu sifat bilan ta’riflanganlar. Jumladan, Alloh taolo Qur’oni karimda shunday

marhamat qiladi: “Bas, (Ey, Muhammad!) Siz ham matonatli payg‘ambarlar sabr qilganlaridek sabr qiling” Ahqof surasi, 35-oyat).

“Tarixi anbiyo va hukamo” asari ham ulul-azm payg‘ambarlar Nuh alayhissalom bilan boshlanadi. Alisher Navoiy asarda Nuh alahissalom haqida quyidagi fikrlarni keltiradi : “ Nuh ibni Malik ibni Matushlax ibni Idris payg‘ambari mursaldur va Najiyulloh aning laqabidur. Ba’zi qirq yoshtin so‘ngra, ba’zi ellik yoshtin so‘ngra debdurlarki, anga vahy nozil bo‘ldi. Va aning zamonida olam xaloyiqi butparast bo‘lub erdilar. To‘quz yuz ellik yil elni o‘z dinig‘a da’vat qildi. Sekson kishidan ortiq qabul qilmadilar. Kuffordin anga izolar tegar erdi. Ul so‘z aytsa, eshitmoli deb qulog‘larini tutar erdilar. Haddan o‘tkondin so‘ng, Nuh (a.s.) duo qildi:

رَبِّ لَا تَذَرْ عَلَى الْأَرْضِ مِنَ الْكَافِرِينَ دَيَّارًا

“Rabbi lo tazar alal minal kafirina dayyoro” duosi mustajob bo‘ldi.” [1.543] Bu so‘zlardan ma’lum bo‘ladiki, Nuh butparast xalqni o‘z diniga- yazdonparastlikka qanchalik tashviqot qilmasin foydasi bo‘lmadi. Faqat sakson kishi Nuhning yonidan bordilar. Boshqalar Nuhni izza qilar, u so‘z aytsa eshitmaylik, deb quloqlarini berkitib olar erdilar. Bu odamlarning qilmishi Nuhni qattiq ranjitdi va Nuh ularni jazolamoqni talab qildi.

“Tarixi anbiyo va hukamo” asarida Nuh to‘g‘risidagi hikoyada butun dunyo to‘foni, undan keyin yuz beradigan voqealar, Turk, Ajam, Hind mamlakatlari o‘tmishiga oid afsonlarni ham uchratishimiz mumkin.

“Tarixi anbiyo va hukamo” da ulul - azm payg‘ambarlar Nuhdan so‘ng “Xalilur Rahmon“ (“Rahmonning do‘sti”), “payg‘ambarlar otasi” deya ta’rif berilgan Ibrohim alayhissalom bilan davom etadi. Navoiy Ibrohim (a.s) to‘g‘risida quyidagi ma’lumotlarni beradi:

“ Ibrohim salavotur-rahmon alayh. Ulul-azm bitibdurlar. Otasi Ozar erdikim, ani Torax ham bitibdurlar. Va bu Ozar Kufaning Kavsarmo otlig‘ kentidindur. Va Ibrohim (a.s.) ning valodati Namrud ibni Ka’non ibni Kush ibni Iram ibni Som ibni Nuh zamonida erdi. Bu Namrud tarix alhining ittifoqi bila to‘rt kishikim olamda saltanat qildilar, biri uldur. Bu to‘rt kishidin ikkisi payg‘ambardurlar. Biri Zulqarnayn, biri Sulaymon (a.s.) Va yana ikisi kofirdurlar – biri Namrud, biri Buxtunnasr [1.548]

Navoiy asarda Ibrohim (a.s.) va Namrudning o‘zaro suhbatlarini chiroyli dalillar bilan keltirib o‘tadi. Alqissa, Ibrohim alayhissalom butlarni rad etib, odamlarni tangriga da’vat qilar edi. Bu xabar Namrudga yetishgach, taraddudda qolib, uni huzuriga chaqirdi. Ibrohim Namrud dargohiga kirgach, boshqalardek unga sajda qilmadi. Namrud o‘ziga sajda qilmaganining sababini so‘radi. Ibrohim: Men faqat meni yaratgan kishiga sajda qilaman, dedi. Namrud: Seni kim yaratgan, - dedi. Javob berdi: Meni o‘likni tiriltiradigan va tirikni o‘ldiradigan yaratgan. Namrud: Men ham

bunday ishni qilolaman, - dedi. Zindondan ikki kishini keltirishni buyurdi, birini o'ldirdi va birini ozod qildi.

Ibrohim alayhis-salom bu xil o'ldirib tiriltirishni tan olmay: mening tangrim quyoshni sharqdan chiqaradi, agar sen g'arbdan chiqara olsang, men da'vongni qabul qilay dedi. Namrud bu ishdan o'z bo'ldi. Ibrohim alayhis-salom u davradan chiqib xaloyiqni tangriga dalolat qilib, o'zining xudo elchisi ekanini oshkor qildi.[2.71]

Ibrohim alayhis-salom haqida Qur'oni karimda shunday oyat nozil qilingan.

وَأَذْكُرْ فِي الْكِتَابِ إِبْرَاهِيمَ إِتَّهَمَهُ كَانُ صَدِيقًا نَبِيًّا

“(Ey Muhammad!) Kitobda Ibrohim (qissasini) yod eting! Darhaqiqat, u juda sadoqatli payg'ambar edi” (Maryam surasi,41- oyat).[4.243]

Alisher Navoiy Ibrohimdan (a.s.) dan so'ng ulul - azm payg'ambarlar safini Muso (a.s.) voqealari bilan davom ettiradi. “Muso alayhissalom ulul-azmdur va laqabi Kalimullohdur, Ya'qub alayhissalom avlodidandur.” Muso to'g'risidagi hikoya uzun va hodisalarga boy. Bunda ezgulik bilan yovuzlik o'rtasidagi kurash tasvirlanadi. Bu kurash yazonparastlik orqali ko'rinadi. Muso tug'ilgach u yovuzlikka qarshi kurasha boshlaydi. Musoning dunyoga kelishi va o'sib kamol topishi murakkab sarguzashtlar orqali sodir bo'ladi. Shu o'rinda Navoiy Muso alayhissalom mo'jizalaridan birini shunday bayon qiladi.

“ Va Fir'avnning bir qizi bor erdikim, anga baras (yuzdagi pes) illati bor erdi..., yana Muso alayhissalomning mo'jizi bukim,og'zin suyi bila ul baras filhol daf bo'ldi. Va Osiya anga Muso ot qo'ydikim, ibriy tili bila ma'nisi savr daraxtidur”. [1.561]

Muso alayhissalom Fir'avn bilan so'zlashib, uni o'z diniga da'vat qilib, Tangri taologa ibodat qilishga chaqirdi, o'zining payg'ambarligini bildirdi. Fir'avn mo'jiza ko'rsatishni talab qilganda qo'lidagi hassani yerga tashladi va hassa shunday ajdahoga aylandiki, haybatidan qancha kishilar halok bo'ldilar. Fir'avn o'zini yuqori tutib, Alloh taolo amridan yuz o'girib, Muso alayhissalomni yolg'onga chiqarish va Bani Isroilni azoblashda davom etar ekan, Alloh taolo Muso alayhissalomga Fir'avn va uning tarafdorlariga shiddatli azob yetishi haqida e'lon qilishni buyurdi.

Muso alayhissalom fazilati,ilmi va payg'ambarligi tufayli martabasi shu darajaga yetdiki, bu hech bir aqlga sig'mas edi. Shu sababli: Bu kun olam yuzida yaratuvchi tangri mendan donoroq bandani yaratganmikin, degan fikr tiliga keldi yoki ko'nglidan kehti. “Ey, Muso, o'zingdan olimroq bandani ko'rmoqchi bo'lsang Majmaul Bahraynga bor” -degan xitob keldi. Shunda u Xizr (a.s)ga duch keladi va Xizr qarshisida Musoning aql –farosatda o'zligi namoyon bo'ladi.

Muso hikoyasi quyidagi she'r bilan yakunlanadi:

Musoki, jahonga tushti g'avg'osi aning

Horun erdi vaziri donosi aning.

Chun bo'ldi behisht sori ma'vosi aning
Ne qoldi aso, ne yadi bayzosi aning.[2.39]

Navoiy Muso alayhissalom hikoyatlaridan so'ng sadoqatli, ulul - azm payg'ambar Iso haqida quyidagilarni bayon qilib, uning dunyoga kelishi borasida gaplar ko'p ekanini aytib yozadi: "Iso ibni Maryam salavotullohi alayh. Bir qavl bila uchunchi ulul-azmdur, bir qavl bila beshinchi. Andin burung'i anbiyodin so'ngra hech qoysig'a qirq yoshdin burun nubuvvat yetmadi. Va lekin ul modarzod payg'ambar erdi.

Masih vafzida so'z ko'ptur. Va Iso (a.s.) valodatida ham so'z ko'ptur. Tafosir kutubidin ma'lum bo'lur. Chun bu muxtasarda matlub ixtisordur, ya'ni muarrixona ishlarga qone' bo'luldi. Muqarrardurkim, Iso (a.s.) ning atosi yo'qtur"[1.589] Navoiy asarda "Injil" Isoga yuborilgani, Baytulmuqaddasga kelib odamlarni yagona Tangriga sig'inmoqqa tashviqot qila boshlagani, xalq unga ishonmay nomunosib so'zlar aytishgani, ammo Hamutlar imon keltirib bu dinni qabul qilganliklari, ularning sonlari o'n ikki kishi ekanligi va ularning kasblari bo'yoqchilik ekanligini ta'riflab Iso (a.s.) ga quyidagicha ta'rif beradi: "Iso (a.s.) olam va dunyo asbobidin hech nima qabul qilmadi va alardin bir pashmina to'n va bo'rk va bir asosi bor erdi. Bir yerda bo'lmas erdi, doyim sayrda erdi. Ro'zi uchun kasb qilmadi, har ne yeti qone' bo'ldi".[1.590]

Asarda Iso alayhissalom Ruhulloh payg'ambardur deya so'z boradi va quyidagi hikoya keltiriladi. Iso balchiq (loydan) dan bir qush yasab, unga o'z nafasini yetkazganda, u qushga jon kirdi va u qush uchib ketdi. Isoning duosi bilan o'liklar tirilar edi. Iso alayhissalom mo'jizalaridan yana biri sifatida akma (ko'r) va abros (pes) illatini davolashi ham keltirib o'tiladi. Bu haqda Qur'oni karimda ham quyidagi oyat nozil bo'lganini ko'rish mumkin

أَبِي أَخْلَقُ لَكُمْ مِنَ الطَّيْنِ كَهَيْئَةِ الطَّيْرِ فَأَنْفُخُ فِيهِ فَيَكُونُ طَيْرًا بِإِذْنِ اللَّهِ وَأُبْرِئُ الْأَكْمَهَ
وَالْأَبْرَصَ

"Anni ahluka lako'm minat-tiyini kahayatit- tayri faanfuxu fih fayakunu tayran biiznillohi va ubriul- akmaha val-abrasa")

"Ulug' Ollo so'zi: Dedi : Men sizlarga tuproqdan bir qushni yarataman va xudoning xohishi bilan bu qushga jon kiritaman va u uchadi va pes va ko'rlarga shifo yetkazaman".

Ruboiy:

Isoki, mujarrad ayladi Tengri ani,

Ko'k ravzasi bo'ldi jilvagohu chamani.

Yer ahlidin ulki bo'lsa tajrid fani,

Tong ermas, agar ko'k o'lsa aning vatani.[1.593]

Navoiy Iso alayhissalom voqealarini yakunlab, As'hobi qahf va ba'zi mutafarriq axbor haqida hikoya qilar ekan oxirgi ulul-azm payg'ambar Muhammad alayhissalom haqida to'xtalmaydi. Navoiy asarining bu jihati "Qisasi Rabg'uziy"dan farq qiladi.

“Rabg‘uziy qissalari” ham Navoiy kitobidagi anbiyo bobi bilan deyarli o‘xshash. Ammo Navoiy o‘z kitoblarini Samo va Yer tasviridan emas, Odam tasviridan boshlaydi. Anbiyo hikoyalari Jirjisda tugallaydi. Rabg‘uziy esa Odamdan to Muhammad payg‘ambarning nabirasi Husayngacha mufassal hikoya qiladi.[3.48]

Xullas, Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” nasriy asari tarkibiga g‘oyaviy-badiiy ruhiga yuqorida ko‘rsatilgani kabi juda ko‘p afsona, rivoyat, ertak, naqlar mazmuni va motivlari mahorat bilan singdirilgan. Bu asarlarda payg‘ambarlar va shohlar haqida xalq orasida keng tarqalgan hikoya va qissalar keltirilganligi uchun tarix va afsona qorishib ketgan. Ular faqat afsona va rivoyatlardan iborat emas. Ularda ko‘p real tarixiy voqealar va ma’lumotlar ham o‘z aksini topgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami, 8-jild. Tarixi anbiyo va hukamo. – Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011.
2. Alisher Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo” G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – Samarqand :1990.
3. Aziz.Qayumov. Asarlar, 4-jild. - Toshkent: Mumtoz so‘z. 2009.
4. Muhammad Ali Sobuniy. Anbiyolar qissasi va Payg‘ambarlar tarixi.- Sharq nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati - Toshkent : 2021.
5. Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati, IV tom. –Toshkent: Fan nashriyoti, 1983